

SCIENCE
PROBLEMS.UZ

ISSN 2181-1342

Actual problems of social and humanitarian sciences
Актуальные проблемы социальных и гуманитарных наук

Ijtimoiy-gumanitar fanlarning dolzarb muammolari

9-son (5-jild)

2025

SCIENCEPROBLEMS.UZ

**IJTIMOIIY-GUMANITAR FANLARNING
DOLZARB MUAMMOLARI**

№ 9 (5) – 2025

**АКТУАЛЬНЫЕ ПРОБЛЕМЫ СОЦИАЛЬНО-
ГУМАНИТАРНЫХ НАУК**

ACTUAL PROBLEMS OF HUMANITIES AND SOCIAL SCIENCES

TOSHKENT-2025

BOSH MUHARRIR:

Isanova Feruza Tulqinovna

TAHRIR HAY'ATI:

07.00.00- TARIX FANLARI:

Yuldashev Anvar Ergashevich – tarix fanlari doktori, siyosiy fanlar nomzodi, professor;

Mavlanov Uktam Maxmasabirovich – tarix fanlari doktori, professor;

Xazratkulov Abror – tarix fanlari doktori, dotsent;

Tursunov Ravshan Normuratovich – tarix fanlari doktori;

Xolikulov Axmadjon Boymahmatovich – tarix fanlari doktori;

Gabrielyan Sofya Ivanovna – tarix fanlari doktori, dotsent;

Saidov Sarvar Atabullo o'g'li – katta ilmiy xodim, Imom Termiziy xalqaro ilmiy-tadqiqot markazi, ilmiy tadqiqotlar bo'limi.

08.00.00- IQTISODIYOT FANLARI:

Karlibayeva Raya Xojabayevna – iqtisodiyot fanlari doktori, professor;

Nasirxodjayeva Dilafruz Sabitxanovna – iqtisodiyot fanlari doktori, professor;

Ostonokulov Azamat Abdukarimovich – iqtisodiyot fanlari doktori, professor;

Arabov Nurali Uralovich – iqtisodiyot fanlari doktori, professor;

Xudoyqulov Sadirdin Karimovich – iqtisodiyot fanlari doktori, dotsent;

Azizov Sherzod O'ktamovich – iqtisodiyot fanlari doktori, dotsent;

Xojayev Azizxon Saidaloxonovich – iqtisodiyot fanlari doktori, dotsent

Xolov Aktam Xatamovich – iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent;

Shadiyeva Dildora Xamidovna – iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent v.b.;

Shakarov Qulmat Ashirovich – iqtisodiyot fanlari nomzodi, dotsent.

09.00.00- FALSAFA FANLARI:

Hakimov Nazar Hakimovich – falsafa fanlari doktori, professor;

Yaxshilikov Jo'raboy – falsafa fanlari doktori, professor;

G'aybullayev Otabek Muhammadiyevich – falsafa fanlari doktori, professor;

Saidova Kamola Uskanbayevna – falsafa fanlari doktori;

Hoshimxonov Mo'min – falsafa fanlari doktori, dotsent;

O'roqova Oysuluv Jamoliddinovna – falsafa fanlari doktori, dotsent;

Nosirxodjayeva Gulnora Abdukaxxarovna – falsafa fanlari nomzodi, dotsent;

Turdiyev Bexruz Sobirovich – falsafa fanlari doktori (DSc), Professor.

10.00.00- FILOLOGIYA FANLARI:

Axmedov Oybek Saporbayevich – filologiya fanlari doktori, professor;

Ko'chimov Shuxrat Norqizilovich – filologiya fanlari doktori, dotsent;

Hasanov Shavkat Ahadovich – filologiya fanlari doktori, professor;

Baxronova Dilrabo Keldiyorovna – filologiya fanlari doktori, professor;

Mirsanov G'aybullo Qulmurodovich – filologiya fanlari doktori, professor;

Salaxutdinova Musharraf Isamutdinovna – filologiya fanlari nomzodi, dotsent;

Kuchkarov Raxman Urmanovich – filologiya fanlari nomzodi, dotsent v/b;

Yunusov Mansur Abdullayevich – filologiya fanlari nomzodi;

Saidov Ulugbek Aripovich – filologiya fanlari nomzodi, dotsent.

12.00.00- YURIDIK FANLAR:

Axmedshayeva Mavlyuda Axatovna – yuridik fanlar doktori, professor;

Muxitdinova Firyuza Abdurashidovna – yuridik fanlar doktori, professor;

Esanova Zamira Normurotovna – yuridik fanlar doktori, professor, O'zbekiston Respublikasida xizmat ko'rsatgan yurist;

Hamroqulov Bahodir Mamasharifovich – yuridik fanlar doktori, professor v.b.,;

Zulfiqorov Sherzod Xurramovich – yuridik fanlar doktori, professor;

Xayitov Xushvaqt Saparbayevich – yuridik fanlar doktori, professor;

Asadov Shavkat G'aybullayevich – yuridik fanlar doktori, dotsent;

Ergashev Ikrom Abdurasulovich – yuridik fanlari doktori, professor;

Utemuratov Maxmut Ajimuratovich – yuridik fanlar nomzodi, professor;

Saydullayev Shaxzod Alixanovich – yuridik fanlar nomzodi, professor;

Hakimov Komil Baxtiyarovich – yuridik fanlar doktori, dotsent;

Yusupov Sardorbek Baxodirovich – yuridik fanlar doktori, professor;

Amirov Zafar Aktamovich – yuridik fanlar doktori (PhD);

Jo'rayev Sherzod Yuldashevich – yuridik fanlar nomzodi, dotsent;

Babadjanov Atabek Davronbekovich – yuridik fanlar nomzodi, professor;

Normatov Bekzod Akrom o'g'li — yuridik fanlar bo'yicha falsafa doktori;

Rahmatov Elyor Jumaboyevich — yuridik fanlar nomzodi;

13.00.00- PEDAGOGIKA FANLARI:

Xashimova Dildarxon Urinboyevna – pedagogika fanlari doktori, professor;

Ibragimova Gulnora Xavazmatovna – pedagogika fanlari doktori, professor;

Zakirova Feruza Maxmudovna – pedagogika fanlari doktori;

Kayumova Nasiba Ashurovna – pedagogika fanlari doktori, professor;

Taylanova Shoxida Zayniyevna – pedagogika fanlari

doktori, dotsent;

Jumaniyozova Muhayyo Tojiyevna – pedagogika fanlari doktori, dotsent;

Ibraximov Sanjar Urunbayevich – pedagogika fanlari doktori;

Javliyeva Shaxnoza Baxodirovna – pedagogika fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD);

Bobomurotova Latofat Elmurodovna — pedagogika fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD).

19.00.00- PSIXOLOGIYA FANLARI:

Karimova Vasila Mamanosirovna – psixologiya fanlari doktori, professor, Nizomiy nomidagi Toshkent davlat pedagogika universiteti;

Hayitov Oybek Eshboyevich – Jismoniy tarbiya va sport bo'yicha mutaxassislarni qayta tayyorlash va malakasini oshirish instituti, psixologiya fanlari doktori, professor

Umarova Navbahor Shokirovna– psixologiya fanlari doktori, dotsent, Nizomiy nomidagi Toshkent davlat pedagogika universiteti, Amaliy psixologiyasi kafedrasini mudiri;

Atabayeva Nargis Batirovna – psixologiya fanlari doktori, dotsent;

Shamshetova Anjim Karamaddinovna – psixologiya fanlari doktori, dotsent;

Qodirov Obid Safarovich – psixologiya fanlari doktori (PhD).

22.00.00- SOTSIOLOGIYA FANLARI:

Latipova Nodira Muxtarjanovna – sotsiologiya fanlari doktori, professor, O'zbekiston milliy universiteti kafedra mudiri;

Seitov Azamat Po'latovich – sotsiologiya fanlari doktori, professor, O'zbekiston milliy universiteti;

Sodiqova Shohida Marxaboyevna – sotsiologiya fanlari doktori, professor, O'zbekiston xalqaro islom akademiyasi.

23.00.00- SIYOSIY FANLAR

Nazarov Nasriddin Ataqulovich –siyosiy fanlar doktori, falsafa fanlari doktori, professor, Toshkent arxitektura qurilish instituti;

Bo'tayev Usmonjon Xayrullayevich –siyosiy fanlar doktori, dotsent, O'zbekiston milliy universiteti kafedra mudiri.

OAK Ro'yxati

Mazkur jurnal Vazirlar Mahkamasi huzuridagi Oliy attestatsiya komissiyasi Rayosatining 2022-yil 30-noyabrdagi 327/5-son qarori bilan tarix, iqtisodiyot, falsafa, filologiya, yuridik va pedagogika fanlari bo'yicha ilmiy darajalar yuzasidan dissertatsiyalar asosiy natijalarini chop etish tavsiya etilgan ilmiy nashrlar ro'yxatiga kiritilgan.

“Ijtimoiy-gumanitar fanlarning dolzarb muammolari” elektron jurnali 2020-yil 6-avgust kuni 1368-sonli guvohnoma bilan davlat ro'yxatiga olingan.

Muassis: “SCIENCEPROBLEMS TEAM” mas'uliyati cheklangan jamiyati

Tahririyat manzili:

100070. Toshkent shahri, Yakkasaroy tumani, Kichik Beshyog'och ko'chasi, 70/10-uy. Elektron manzil:

scienceproblems.uz@gmail.com

Bog'lanish uchun telefon:

(99) 602-09-84 (telegram).

MUNDARIJA

07.00.00 – TARIX FANLARI

Ahmadjonov Ahrorbek Shuhratbek o'g'li

THE JEWS OF CENTRAL ASIA DURING THE RUSSIAN EMPIRE AND SOVIET ERA:

THE LEGAL, SOCIAL, AND CULTURAL LIFE OF THE BUKHARAN JEWS 9-13

Xurramov Xamid Bobokul o'g'li

AMIR TEMUR DAVRIDA TERMIZ VA CHAG'ONIYON QANDAY O'RIN TUTGAN? 14-18

Zikirova Maxprat Soliyevna

HARBIY SOHADA VATANPARVARLIKNI KUCHAYTIRISH TENDENSIYALARI

VA ULARNING MILLIY XUSUSIYATLARI 19-25

08.00.00 – IQTISODIYOT FANLARI

Амбарцумян Анастас Алексеевич

СОСТОЯНИЕ И НЕКОТОРЫЕ ПРИОРИТЕТЫ РАЗВИТИЯ

ЭНЕРГЕТИКИ УЗБЕКИСТАНА 26-38

Rajabov Alibek Xushnudbekovich

ILMIY-TADQIQOT VA ISHLANMALARNI MINTAQAVIY IJTIMOIIY-IQTISODIY

RIVOJLANISH TENDENSIYALARIGA TA'SIRI 39-46

Xaytboyeva Nigora Bakmamatovna

OPPORTUNITIES FOR USING CUSTOMER-ORIENTED MARKETING STRATEGIES

IN TEXTILE ENTERPRISES 47-52

Shixiyev Raxim Muhammedovich

QORAQALPOG'ISTON RESPUBLIKASIDA QISHLOQ XO'JALIGI TEXNIKALARINING

RIVOJLANISH TENDENSIYALARI VA ZAMONAVIY TEXNOLOGIYALARNI QO'LLASH

ISTIQBOLLARI 53-60

Pardayeva Ma'rifat Muzaffarovna

SURXONDARYO VILOYATI IQTISODIY RIVOJLANISHINING EKONOMETRIK

VA STATISTIK TAHLILI 61-66

09.00.00 – FALSAFA FANLARI

Navro'zova Gulchehra Nigmatovna

BAHOUDIN NAQSHBAND RUBOIYLARIDA VASL MASALASI 67-70

Yuldasheva Diloram Yuldashevna

O'ZBEKISTONDA AXBOROT XAVFSIZLIGINI TA'MINLASHNING

DOLZARB MASALALARI 71-74

Mamadaliyev Mansurjon Mamajonovich

ZAMONAVIY JAMIYATDA FUTBOL FALSAFASINING AHAMIYATI 75-80

10.00.00 – FILOLOGIYA FANLARI

Ayimbetova Zamira

BADIIY ADABIYOTDA MOTIVLARNI TIZIMLASHTIRISH

VA TASNIFLASHNING NAZARIY ASOSLARI 81-87

<i>Kurbanbaev Djavod Aminbaevich</i> ANTROPOSENTRIZM PARADIGMASINING ASOSIY TUSHUNCHA VA TAMOIYILLARI	88-92
<i>Петросянц Эрнст</i> СЕЛЕБ-СЛОВА: ОККАЗИОНАЛИЗМЫ, РОЖДАЮЩИЕСЯ В МЕДИА	93-99
<i>Gulmuradova Sobira Rustam qizi</i> NAVOIY VA TILIMIZ	100-103
<i>Begmatova Sitora Bekzod qizi</i> ROMANTIZM OQIMINING O'ZIGA XOS XUSUSIYATLARI VA ULARNING ASOSIY VAKILLARI	104-107

12.00.00 – YURIDIK FANLAR

<i>Firuz Muxitdinova</i> JAMIYAT BARQARORLIGI VA SHAXSIY BURCH: JAVOBGARLIK MADANIYATI HAQIDA TAHLILY MULOHAZA	108-113
<i>Qayumberdiyeva Dildora Doniyor qizi</i> NIZOLARNI HAL QILISHNING MUQOBIL USULI SIFATIDA MEDIATSIYA INSTITUTINING ROLI	114-123
<i>Narimanov Bekzod Abduvaliyevich</i> IJTIMOIY LOYIHALARNI AMALGA OSHIRISHDA NODAVLAT NOTIJORAT TASHKILOTLARI FAOLIGINI YUKSALTIRISHNING INNOVATSION USULLARI	124-135
<i>Umarova Barno Akbutayevna</i> FUQAROLIK SUDLARIDA ATROF-TABIIY MUHITGA NISBATAN YETKAZILGAN ZARARLARNI UNDIRISH BILAN SUD AMALIYOTIDAGI MUAMMOLARNING AYRIM JIHATLARI	136-143
<i>Rasulov Baxtiyor Shavkatovich</i> ATMOSFERA HAVOSINI MUHOFAZA QILISH QONUNCHILIGI IJROSI USTIDAN PROKUROR NAZORATI	144-150
<i>Normatov Ermamat Toyir o'g'li</i> ATROF-MUHITNI MUHOFAZA QILISHDA XALQARO HUQUQ VA MILLIY QONUNCHILIK	151-164
<i>Karamanova Benazir</i> YANGI O'ZBEKISTONDA YOSHLARNING QONUN IJODKORLIGIDA ISHTIROKI	165-169
<i>Ametova Nurjamal Kudaybergenovna</i> JINOYATLARNI OLDINI OLIISHDA QO'SHIMCHA JAZOLARNING PREVENTIV XUSUSIYATLARI	170-177
<i>Rajabov Sherzodbek Ravshanbekovich</i> NEUSTOYKA TO'LASH JAVOBGARLIK TURI SIFATIDA	178-181

13.00.00 – PEDAGOGIKA FANLARI

<i>Madaminova Gulzoda Madaminovna</i> VOLEYBOL MASHG'ULOTLARI ORQALI MAKTAB O'QUVCHILARINING JISMONIY SIFAT KO'RSATKICHLARINI RIVOJLANTIRISH	182-185
--	---------

Rizayeva Gulnoza Xikmatuloyevna

AKADEMIK LITSEYLARDA “ATOM VA YADRO FIZIKASI BO‘LIMI MAVZULARINI”
RAQAMLI TEXNOLOGIYALAR VOSITASIDA O‘QITISH METODIKASI. (“ELEMENTAR
ZARRALAR «BOG‘I». POZITRONNING KASHF ETILISHI. ANTIZARRALAR. ELEMENTAR
ZARRALARNI XARAKTERLOVCHI KATTALIKLAR. ELEMENTAR ZARRALAR
FIZIKASIDAGI SAQLANISH QONUNLARI. ORALIQ BOZONLAR-KUCHSIZ O‘ZARO
TA‘SIRNING TASHUVCHILARI” MAVZUSI MISOLIDA) 186-197

Received: 15 August 2025
Accepted: 30 August 2025
Published: 15 September 2025

Article / Original Paper

INNOVATIVE METHODS OF ENHANCING THE ACTIVITY OF NON-GOVERNMENTAL NON-PROFIT ORGANIZATIONS IN THE IMPLEMENTATION OF SOCIAL PROJECTS

Narimanov Bekzod Abduvaliyevich

Human Rights of the Oliy Majlis of the Republic of Uzbekistan
Deputy Authorized Representative for Human Rights (Ombudsman),
Doctor of Juridical Sciences, Associate Professor

Abstract. This article highlights innovative methods for increasing the activity of non-governmental non-profit organizations (NGOs) in the process of implementing social projects. The role of NGOs in solving social problems in society, opportunities for cooperation with the public and private sectors, and mechanisms for increasing efficiency based on modern technologies are analyzed. The advantages of innovative approaches, such as digital platforms, crowdfunding, volunteer development, information dissemination through social networks, and interactive monitoring systems, were also considered. The research results will serve to develop recommendations for optimizing the activities of NGOs and expanding their participation in social projects.

Keywords: non-governmental non-profit organizations, social projects, innovative methods, digital platforms, crowdfunding, volunteering, cooperation, interactive monitoring, social networks.

IJTIMOYIY LOYIHALARNI AMALGA OSHIRISHDA NODAVLAT NOTIJORAT TASHKILOTLARI FAOLLIGINI YUKSALTIRISHNING INNOVATSION USULLARI

Narimanov Bekzod Abduvaliyevich,

O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisining Inson huquqlari
bo'yicha vakili (ombudsman) o'rinbosari,
yuridik fanlar doktori, dotsent
e-mail: bekzodnarimanov84@gmail.com

Annotatsiya. Ushbu maqolada ijtimoiy loyihalarni amalga oshirish jarayonida nodavlat notijorat tashkilotlari (NNT) faolligini oshirishning innovatsion usullari yoritilgan. NNTlarning jamiyatdagi ijtimoiy muammolarni hal etishdagi o'рни, davlat va xususiy sektor bilan hamkorlik imkoniyatlari hamda zamonaviy texnologiyalar asosida samaradorlikni oshirish mexanizmlari tahlil qilingan. Shuningdek, raqamli platformalar, kraudfanding, volontyorlikni rivojlantirish, ijtimoiy tarmoqlar orqali axborot tarqatish va interaktiv monitoring tizimlari kabi innovatsion yondashuvlarning afzalliklari ko'rib chiqilgan. Tadqiqot natijalari NNTlar faoliyatini optimallashtirish va ularning ijtimoiy loyihalarda ishtirokini kengaytirish bo'yicha tavsiyalar ishlab chiqishga xizmat qiladi.

Kalit so'zlar: nodavlat notijorat tashkilotlari, ijtimoiy loyihalar, innovatsion usullar, raqamli platformalar, kraudfanding, volontyorlik, hamkorlik, interaktiv monitoring, ijtimoiy tarmoqlar.

DOI: <https://doi.org/10.47390/SPR1342V5I9Y2025N19>

Xalqaro tajribada, umuman fuqarolik jamiyatini shakllantirish va uning institutlari faoliyatini samaradorligini ta'minlashda asosiy ustuvor yo'nalishlardan biri sifatida NNTlar va davlat organlari o'rtasidagi ijtimoiy sheriklikni amalga oshirish belgilangan.

Bejiz Davlatimiz rahbari tomonidan 2020-yil 20-yanvarda Parlamentga qilingan Murojaatida “Islotlarning amaliy natijadorligini oshirishda, joylarda yangi tashabbuslarni ilgari surishda aholimizning yanada faolroq, yanada tashabbuskor bo‘lishiga erishmog‘imiz lozim”ligi ta’kidlagan [1].

2022-yilda NNT va fuqarolik jamiyati boshqa institutlarining dastur hamda loyihalarini 97 milliard 755 million so‘m miqdorida davlat grantlari, ijtimoiy buyurtmalari va subsidiyalari shaklida qo‘llab-quvvatlash amalga oshirildi [2].

O‘tgan yillar davomida 2021-yilda fuqarolik jamiyati institutlarini qo‘llab-quvvatlash hajmi davlat tomonidan 2020-yilga nisbatan 2 baravarga oshirilib, 75,8 mlrd. so‘mga yetkazildi. Buning natijasida 2021–2025-yillarda fuqarolik jamiyatini rivojlantirish konsepsiyasiga asosan 2025-yilda erishiligi lozim bo‘lgan ko‘rsatkich 2021-yilning o‘zida 20 foizga oshirib bajarildi. Shuningdek, so‘nggi 5 yil davomida fuqarolik jamiyati institutlari tomonidan ilgari surilgan 1 750 tadan ortiq ijtimoiy tashabbuslar jami 192 mlrd. so‘m miqdorida qo‘llab-quvvatlandi.

Lekin NNTning davlat grantlari va ijtimoiy buyurtmalari hisobidan amalga oshirayotgan loyihalari asosan tadbirlar o‘tkazish, tarqatma materiallar tayyorlash va boshqa “yumshoq komponent”li dasturlarga yo‘naltirilgan bo‘lib, ular aholining dolzarb muammolarini haqiqiy yechimiga xizmat qilmayapti.

Mazkur holatni bartaraf etish va aholi muammolarini manzilli hal etishga qaratish zarur. Bunda tanlovlar yo‘nalishlarini mahallalarning ijtimoiy-iqtisodiy, ma‘naviy-ma‘rifiy va madaniy muammolarini o‘rganish natijalari asosida ishlab chiqish lozim hisoblanadi.

O‘zbekistonda Nodavlat notijorat tashkilotlarini qo‘llab-quvvatlashning eng ko‘p tarqalgan usullaridan biri davlat ijtimoiy buyurtmasi hisoblanadi. Milliy qonunchiligimizda nodavlat notijorat tashkilotlarga davlat subsidiyasi, davlat granti va davlat ijtimoiy buyurtmasini berish va boshqa shaklda qo‘llab-quvvatlash bo‘yicha asosiy qonun hujjati bu “Ijtimoiy sheriklik to‘g‘risida”gi qonun hisoblanadi.

Ta’kidlash lozimki, grant tushunchasi normativ-huquqiy hujjatlarga qaraganda ko‘proq ilmiy sohada uchraydi. O‘zbekistonda grantga oid munosabatlar qisman tartibga solingan. O‘zbekiston qonunchiligida grantlarning umumiy tushunchasi ham, muhim xususiyatlari ham belgilanmagan. Bugungi kunda grantlar xayriyalarning alohida bir turi sifatida shaxsiy mablag‘lar hisobidan ham, davlat byudjeti hisobidan ham taqdim etilmoqda.

“Grant” tushunchasi ba’zi sohaviy qonunlarda davlat tomonidan qo‘llab quvvatlash shakli sifatida berilgan. Masalan, O‘zbekiston Respublikasining “Nodavlat notijorat tashkilotlari faoliyatining kafolatlari to‘g‘risida”gi Qonuni 11-moddasiga ko‘ra, davlat nodavlat notijorat tashkilotlarining faoliyatini subsidiyalar, grantlar va ijtimoiy buyurtmalar shaklida qo‘llab-quvvatlashi mumkin. Ushbu Qonun 13-moddasiga asosan davlat granti nodavlat notijorat tashkilotlariga ijtimoiy foydali maqsadlarga erishishga qaratilgan loyihalarni amalga oshirish uchun tanlov asosida O‘zbekiston Respublikasi Davlat byudjeti mablag‘lari hisobidan beriladigan pul mablag‘lari va moddiy resurslardir.

O‘zbekiston Respublikasining “Ijtimoiy sheriklik to‘g‘risida”gi Qonuni 12-moddasiga ko‘ra, nodavlat notijorat tashkilotlariga va fuqarolik jamiyatining boshqa institutlariga davlat subsidiyalari, grantlari va ijtimoiy buyurtmalari berish, ijtimoiy ahamiyatga molik loyihalarni moliyalashtirish Ijtimoiy sheriklikni davlat tomonidan qo‘llab-quvvatlashning bir turi hisoblanadi.

Shuningdek, ushbu qonunda tashkilotlarga davlat subsidiyasi, davlat granti va davlat ijtimoiy buyurtmasini berish bo'yicha qator mujmal va nomuvofiq normalar hamda ushbu normalarning ham ijrosi belgilangan tartibda ta'minlanmayotgan holatlar mavjud.

Xususan, Qonunning 15-moddasida Mamlakatda demokratik o'zgarishlarni yanada rivojlantirishga hamda bunda nodavlat notijorat tashkilotlarining va fuqarolik jamiyati boshqa institutlarining ishtirok etishiga ko'maklashish maqsadida O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisi huzurida Nodavlat notijorat tashkilotlarini va fuqarolik jamiyatining boshqa institutlarini qo'llab-quvvatlash jamoat fondi (bundan buyon matnda Oliy Majlis huzuridagi jamoat fondi deb yuritiladi) tuzilishi qayd qilingan.

Biroq, na mazkur qonunda na boshqa qonunchilik hujjatlarida uning tashkiliy-huquqiy shakli va maqomi, nodavlat yoki davlat organi ekanligi belgilanmagan.

Qonunning 15-moddasida Oliy Majlis huzuridagi jamoat fondining faoliyatini tashkil etish tartibi O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisining palatalari tomonidan belgilanishi qayd qilingan.

O'zbekiston Respublikasining Konstitutsiyasining 91-moddasida O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisi ikki palatadan — Qonunchilik palatasi (quyi palata) va Senatdan (yuqori palata) iboratligi qayd qilingan.

Konstitutsiyasining 97-moddasiga ko'ra, O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisi Qonunchilik palatasi va Senatining qarorlari Qonunchilik palatasi deputatlari yoki Senat a'zolari umumiy sonining ko'pchilik ovozi bilan qabul qilinadi.

Biroq, Oliy Majlis huzuridagi jamoat fondining faoliyatini tashkil etish tartibi ya'ni O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisi huzuridagi Nodavlat notijorat tashkilotlarini va fuqarolik jamiyatining boshqa institutlarini qo'llab-quvvatlash jamoat fondi to'g'risidagi nizom Qonunchilik palatasi va Senatining qarorlari bilan emas, balki ushbu palatalarining Kengashlari 2015-yil 13-maydagi 132-III/KQ-15-III-sonli Qo'shma qarori bilan tasdiqlangan.

"O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisi Senatining reglamenti to'g'risida"gi Qonunning 6-moddasiga ko'ra, Senat Kengashi qonunda nazarda tutilgan hollarda Senatning vakolatlariga taalluqli qarorlarni Senatning majlislari oralig'ida qabul qiladi, ushbu qarorlar keyinchalik Senatning majlisida tasdiqlanishi belgilangan.

Ammo, qonunda Oliy Majlisi huzuridagi Nodavlat notijorat tashkilotlarini va fuqarolik jamiyatining boshqa institutlarini qo'llab-quvvatlash jamoat fondi to'g'risidagi nizomni tasdiqlash va keyinchalik Senatga kiritish bo'yicha Senat Kengashining vakolati qayd qilinmagan. Bundan tashqari, lex.uz va boshqa manbalarda Oliy Majlis palatalari Kengashlari 2015-yil 13-maydagi 132-III/KQ-15-III-sonli Qo'shma qarorini Senat tomonidan tasdiqlanganligi to'g'risida ma'lumotlar mavjud emas.

"O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisi Qonunchilik Palatasining reglamenti to'g'risida"gi Qonunga ko'ra, Oliy Majlis Qonunchilik palatasi Kengashining daxlsizlik huquqidan mahrum etish to'g'risidagi masalalardan tashqari, Qonunchilik palatasi vakolatiga kiritilgan masalalarni ko'rib chiqish vakolati mavjud emas.

O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisi Qonunchilik palatasi Kengashining va O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisi Senati Kengashining 2015-yil 13-mayda qabul qilingan 132-III/KQ-15-III-sonli Qo'shma qarori bilan tasdiqlangan O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisi huzuridagi Nodavlat notijorat tashkilotlarini va fuqarolik jamiyatining boshqa institutlarini qo'llab-quvvatlash jamoat fondi to'g'risidagi nizomning 1-bandiga muvofiq, O'zbekiston Respublikasi

Oliy Majlisi huzuridagi Nodavlat notijorat tashkilotlarini va fuqarolik jamiyatining boshqa institutlarini qo'llab-quvvatlash jamoat fondi (bundan buyon matnda Oliy Majlis huzuridagi jamoat fondi deb yuritiladi) milliy va chet el valyutasida hisobvaraqlari bor, a'zolari bo'lmagan jamoat fondi shaklida tashkil etilgan nodavlat notijorat tashkiloti — mustaqil yuridik shaxsdir.

Biroq, ushbu qoidalar qonunchilik, xususan "Nodavlat notijorat tashkilotlari to'g'risida"gi Qonunning mazmun-mohiyatiga muvofiq emas. Jumladan, barcha davlat organining huzuridagi tashkilotlar davlat tashkiloti sifatida tashkil qilingan.

Masalan, "Atom energiyasidan tinchlik maqsadlarida foydalanish to'g'risida"gi Qonunning 17-moddasida Hidrometeorologiya xizmati markazi O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi huzuridagi tashkilot sifatida sanab o'tilgan.

Shunga ko'ra, huquqiy jihatdan Oliy Majlis huzuridagi jamoat fondini davlat tashkiloti sifatida tashkil qilish lozim.

Bundan tashqari, "Jamoat fondlari to'g'risida"gi Qonunning 3-moddasida Yuridik va (yoki) jismoniy shaxslar tomonidan ixtiyoriy mulkiy badallar qo'shish asosida tashkil etilgan, xayriya, ijtimoiy, madaniy, ma'rifiy yoki boshqa ijtimoiy foydali maqsadlarni ko'zlaydigan, a'zolari bo'lmagan nodavlat notijorat tashkiloti jamoat fondi (bundan buyon matnda fond deb yuritiladi) deb e'tirof etilishi qayd qilingan. Demak, jamoat fondi bu nodavlat notijorat tashkilotidir.

"Nodavlat notijorat tashkilotlari to'g'risida"gi Qonunning 4-moddasiga ko'ra, davlat organlari hamda ular mansabdor shaxslarining nodavlat notijorat tashkiloti faoliyatiga aralashishiga, xuddi shuningdek nodavlat notijorat tashkilotining davlat organlari hamda ular mansabdor shaxslarining faoliyatiga aralashishiga yo'l qo'yilmaydi.

Oliy Majlis huzuridagi jamoat fondini davlat organi sifatida tashkil qilish mazkur fond va uning rahbariyatida mas'uliyatni kuchaytiradi.

Bugungi kunda Oliy Majlis huzuridagi jamoat fondini keng jamoatchilikka hisobot taqdim qilishi deyarli nomigagina va o'zi xohlagancha beradi. Agar u davlat pulini ishlatyapti va hisobot bersin deyilsa, darrov u nodavlat notijorat tashkilot ekanligi aytiladi. Agar nodavlat notijorat tashkilot bo'lgani uchun "Jamoat fondlari to'g'risida"gi qonun asosida hisobot bersin deyilsa, buni statusi boshqa, bu aslida jamoat fondi emas, bu parlament huzuridagi tashkilot deyiladi. Xullas, mazkur jamoat fondiga na davlat organlariga nisbatan qonunchilikni na nodavlat notijorat tashkilotlariga nisbatan qo'llaniladigan qonunchilikni tatbiq qilib bo'lmaydi. Natijada, mazkur jamoat fondi faoliyati samarasiz bo'lib qolaveradi.

Qonunning 16-moddasiga ko'ra, Parlament komissiyasining faoliyatini tashkil etish tartibi O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisining palatalari tomonidan belgilanadi.

Biroq, Parlament komissiyasi bo'yicha ham yuqoridagi chalkashliklar mavjud.

Qonunning 19-20-moddalariga ko'ra, Davlat subsidiyasi va davlat grantini ajratish tartibi va shartlari Parlament komissiyasi tomonidan belgilanadi.

Qonunda aslida 19-modda "Davlat subsidiyasi va uni ajratish tartibi" deb hamda 20-modda **"Davlat granti va uni ajratish tartibi" deb nomlangan. Biroq, Ushbu moddalarda davlat subsidiyasi va davlat grantini ajratish tartibi va shartlari bo'yicha normalar mavjud emas.**

Shunday qilib, qonun bo'yicha Parlament komissiyasi Davlat subsidiyasi va davlat granti bo'yicha:

ularni ajratish tartibi va shartlari;

loyihalarni tanlab olish va g'oliblarni aniqlash;
sotsial va ijtimoiy ahamiyatga molik dasturlar hamda loyihalarni moliyalashtirish dasturlarini ishlab chiqadi;

taqsimlashda ochiqlik va shaffoflikni ta'minlaydi,

Qonunda Parlament komissiyasiga Davlat subsidiyasi va davlat granti bo'yicha ochiqlik va shaffoflikni ta'minlash bo'yicha vazifa yuklanyapti, lekin **ochiqlik va shaffoflik qanday bo'lish kerakligi to'g'risida qonunda hech qanday norma keltirilmayapti.**

Vaholanki, **davlat organlarini ochiqligi va turli tanlovlarni ochiq o'tkazish bo'yicha boshqa qonunlarda yetarli nomalar mavjud.** Demak, bu qonunda ham Davlat subsidiyasi va davlat granti bo'yicha ochiqlik va shaffoflikni ta'minlashga qaratilgan normalarni keltirib o'tishning imkoni mavjud.

Yana bir jihat shuki, Parlament komissiyasi kollegiyal organ bo'lgandan keyin mantiqiylik jihatdan Oliy Majlis huzuridagi jamoat fondi mablag'larini taqsimlashda ochiqlik va shaffoflikni ta'minlay olmaydi, faqatgina bu to'g'risida Jamoat fondiga tegishli topshiriq berishi mumkin.

Qonunning 16-moddasida Parlament komissiyasi O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisining Qonunchilik palatasi deputatlari, Senati a'zolari, adliya va moliya vazirliklarining, nodavlat notijorat tashkilotlarining va fuqarolik jamiyatining boshqa institutlarining vakillari orasidan rais, uning o'rinbosari, mas'ul kotib va komissiya a'zolaridan iborat tarkibda shakllantirilishi qayd qilingan.

O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisi Qonunchilik palatasi Kengashining va O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisi Senati Kengashining 2015-yil 13-mayda qabul qilingan 132-III/KQ-15-III-sonli Qo'shma qarori bilan tasdiqlangan O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisi huzuridagi Nodavlat notijorat tashkilotlarini va fuqarolik jamiyatining boshqa institutlarini qo'llab-quvvatlash jamoat fondi mablag'larini boshqarish bo'yicha Parlament komissiyasi to'g'risidagi **nizomda Parlament komissiyasi faoliyatini tartibga solish bo'yicha qoidalar belgilangan.**

Mazkur Nizomning 7-bandida Parlament komissiyasi O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisi Qonunchilik palatasi Kengashining va Senati Kengashining qo'shma qarori bilan tasdiqlanadigan rais, uning o'rinbosari, mas'ul kotib va komissiya a'zolaridan iborat bo'lishi hamda Parlament komissiyasi tarkibiga O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisining Qonunchilik palatasi deputatlari, Senati a'zolari, adliya va moliya vazirliklarining, nodavlat notijorat tashkilotlarining va fuqarolik jamiyatining boshqa institutlarining vakillari kirishi qayd qilingan.

"O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisi Qonunchilik Palatasining reglamenti to'g'risida"gi Qonunning 6-moddasida **Qonunchilik palatasi Kengashining vakolatlari qayd qilingan bo'lib, uning vakolatlariga Parlament komissiyasini tashkil qilish nazarda tutilmagan.**

"O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisi Senatining reglamenti to'g'risida"gi Qonunning 6-moddasida Senat Kengashining vakolatlari qayd qilingan bo'lib, uning vakolatlariga **Parlament komissiyasini tashkil qilish nazarda tutilmagan.**

Balki, Mazkur qonunlarning 8-moddasida Ikkala palatalarning muayyan vazifalarni bajarish uchun **komissiyalar tuzishi mumkinligi** qayd qilingan.

Biroq, ikki qonunda ham mazkur **komissiyalarni tuzish** tegishli ravishda **Qonunchilik palatasi va Senat qaror qabul qilinishi** qayd qilingan.

"Ijtimoiy sheriklik to'g'risida"gi **Qonunda** xam O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisi huzuridagi Nodavlat notijorat tashkilotlarini va fuqarolik jamiyatining boshqa institutlarini

qo'llab-quvvatlash jamoat fondi mablag'larini boshqarish bo'yicha **parlament komissiyasini qaysi organ tomonidan tashkil qilinishi qayd qilinmay**, faqatgina uning faoliyatini **tashkil etish tartibi O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisining palatalari tomonidan belgilanishi** qayd qilingan.

Shunga ko'ra, **Parlament komissiyasini palatalarning kengashlari qarori bilan tashkil qilish qonunchilikka muvofiq emas.**

Shuningdek, qonunchilikka ko'ra, Parlament komissiyasi a'zolari adliya va moliya vazirliklari vakillaridan iborat bo'lishi qayd qilingan. Adliya va moliya vazirliklari vakillari Parlament komissiyasi ishida ishtirok etishi ularning asosiy ish vazifalari bilan ma'lum muddat shug'ullanmasligiga olib keladi. **Palatalarning kengashlari esa, bevosita ushbu organlar uchun majburiy bo'lgan topshiriqlar yuborishga haqli emas.** Shu sababli, Parlament komissiyasining ish faoliyatini samarali tashkil qilish va uning a'zolarini qonuniy jalb qilish uchun **Parlament komissiyasini palatalarning yig'ilishida saylash lozim bo'ladi.**

Nizomning 19-bandida Parlament komissiyasining qarori uning majlisida ishtirok etayotgan a'zolarining ko'pchilik ovozi bilan qabul qilinadi.

Majlisda Parlament komissiyasining mas'ul kotibi tomonidan bayonnoma yuritiladi va u raislik qiluvchi tomonidan imzolinishi qayd qilingan.

Parlament komissiyasining qarorlari Oliy Majlis huzuridagi jamoat fondining Ijro etuvchi devoni ijro etishi uchun majburiydir.

Biroq, qonunchilikda parlament komissiyasining **har bir a'zosi uning yig'ilishi natijasi bo'yicha ovoz berish yakunlarini tasdiqlab imzolash tartibi mavjud emas.**

Buning oqibatida, amaliyotda parlament komissiyasi **yig'ilishlari nomigagina o'tkaziladi** va uni amalda qanday qaror qabul qilishni **komissiya raisi hal qiladi.** Biroq, yolg'iz komissiya raisini Parlament komissiyalari **qarori oqibati bo'yicha javobgarligi mavjud emas.** Parlament komissiyasi raisi doimo qaror kollegial bo'lganligini ro'kach qiladi. Shu sababli, Parlament komissiyasi tomonidan pul mablag'larini sarflashda samaradorlik yetarli darajada emas.

Oliy Majlis huzuridagi jamoat fondining sayti bo'lgan fondngo.uz saytida e'lon qilingan 2021-yil 24-noyabr kuni Oliy Majlis huzuridagi nodavlat notijorat tashkilotlari va fuqarolik jamiyatining boshqa institutlarini qo'llab-quvvatlash jamoat fondi mablag'larini boshqarish bo'yicha Parlament komissiyasining yig'ilishining qarorini ko'rib chiqaylik.

Unda Parlament komissiyasi tomonidan "Yoshlarni ma'naviy yetuk qilib tarbiyalashda hamda bandligini ta'minlashda **ijtimoiy sheriklikni kuchaytirish**" mavzusida 3- grant tanlovi, "Jamiyatda sog'lom turmush tarzini targ'ib qilish va aholi sog'lig'ini mustahkamlashda fuqarolik jamiyati institutlarining **faolligini oshirish**" mavzusida 4-grant tanlovi hamda O'zbekiston Respublikasi Mustaqilligining 30 yilligi munosabati bilan e'lon qilingan "Yangi O'zbekistonda erkin va farovon yashaylik!" g'oyasi asosida fuqarolik jamiyati institutlarining ma'naviy-ma'rifiy va **targ'ibot-tashviqot loyihalari** bo'yicha qo'shimcha 5- grant tanlovi loyihalari ko'rib chiqildi.

Shuningdek, 2 ta davlat organi tomonidan taqdim etilgan davlat ijtimoiy buyurtmasi loyihalari ko'rib chiqildi.

Parlament komissiyasi tomonidan "Millatlararo bag'rikenglik va do'stlik muhitini mustahkamlashda fuqarolik jamiyati institutlarini qo'llab-quvvatlash" mavzusida davlat granti ajratish bo'yicha 6-tanlovni e'lon qilish bo'yicha qaror qabul qilindi.

Mavzulardan ko'rish mumkinki, grant tanlovlari faqat targ'ibot masalalariga oid bo'lib, ko'proq ijtimoiy masalalarga oid tadbirlar o'rin olgan. Ushbu tadbirlarning o'tkazish maqsadlari ham juda **umumiy ko'rinishga ega bo'lib, aniq maqsadlar belgilanmagan.**

E'tiborli jihati shundaki, **Parlament komissiyasi tomonidan pul mablag'lari ajratishda mamlakatimizda yuksak texnologiyani rivojlantirish va yoshlarni tabiiy bilimlarga qiziqishini uyg'otish va bu yo'nalishda tizimli ishlar qilish bo'yicha birorta g'oyalar mavjud emas.**

Ya'ni ma'lum bir faol nodavlat notijorat tashkilotlarni foydasi bormi, yoki yo'qmi ularni qo'llab-quvvatlab turish uchun jamoat fondidan pul mablag'i ajratib kelinmoqda.

Achinarlisi, fondngo.uz saytida jami yillar kesimida qancha pul mablag'i ajratilganligi, nimalarga pul mablag'lari sarflanganligi, ularning **natijasida nimalar aniq respublika bo'yicha o'zgarishlar bo'lganligi to'g'risida tahliliy ma'lumotlar mavjud emas.**

O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisi huzuridagi Nodavlat notijorat tashkilotlarini va fuqarolik jamiyatining boshqa institutlarini qo'llab-quvvatlash jamoat fondi mablag'larini boshqarish bo'yicha Parlament komissiyasi to'g'risidagi nizomning 19-bandiga ko'ra, Oliy Majlis huzuridagi **jamoat fondining Ijro etuvchi devoni ijro etishi uchun majburiydir.**

Biroq, amaliyotda O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisi huzuridagi Nodavlat notijorat tashkilotlarini va fuqarolik jamiyatining boshqa institutlarini qo'llab-quvvatlash jamoat fondi mablag'larini boshqarish bo'yicha **Parlament komissiyasi komissiya a'zosining asosiy ish joyi bo'lgan davlat va nodavlat organlariga o'z qarorini ijro uchun yuborildi.** Bu esa, **birinchidan parlament komissiyasi qarorlari noqonuniy bo'lishiga va ikkinchidan uning qarorlari sifatsiz ijro bo'lishiga olib keladi.**

Shunday qilib, Parlament komissiyasining jamoat fondi mablag'larini tasarruf qilish bo'yicha mas'uliyati mavjud emasligi mazkur mablag'larni sarflashda qonuniylik, tenglik, shaffoflik va adolatlilik prinsiplarining buzilishiga olib kelmoqda.

Bir tomondan qonunchilikka ko'ra parlament komissiyasi hisoblansa-da, aslida nodavlat notijorat tashkilotining organi hisoblanadi. Shu sababli, jamoatchilikka hisoboti **davlat organlariga nisbatan qo'yiladigan talablarni a nisbatan talab qila olmaymiz** va natijada keng jamoatchilikka u davlat organi sifatida mablag'larni qanday sarflanganligi bo'yicha hisobot bermaydi yoki umumiy summalarni ko'rsatgan holda ma'lum statistikani taqdim qiladi. Mablag'larni samaradorligi va natijadorligi bo'yicha ham aniq ma'lumotlar keltira olmaydi.

Ikkinchi tomondan biz Parlament komissiyasiga nodavlat notijorat tashkilotining rahbar organiga nisbatan qo'yiladigan normalarni qo'llay olmaymiz. Chunki qonunchilikda nodavlat notijorat tashkilotlar, xususan **jamoat fondiga nisbatan qo'yiladigan talablarni unga nisbatan qo'llanilmasligi bo'yicha normalar mavjud.**

Yana bir jihat shuki, Parlament komissiyasi asosan davlat organi vakillaridan tashkil topganligi sababli **davlat tomonidan unga nisbatan ta'sir o'tkazish imkoniyati mavjud.** Shu sababli, Parlament komissiyasi **tom ma'noda kollegial organ sifatida qaror qabul qila olmaydi.** Parlament komissiyasining fuqarolik jamiyati instituti vakillaridan ham a'zolari mavjud, biroq **mazkur a'zolari ishlovchi fuqarolik jamiyati institutlari ham Jamoat fondi tomonidan subsidiya, ijtimoiy buyurtma yoki grant asosida mablag' bilan ta'minlanishi** sababli, amalda ular ham Parlament komissiyasi **raisining xohish-irodasiga qarab ish tutadi.**

Bu esa, amalda Parlament komissiyasi qarorlari **davlat organi tomonidan amalga oshirilishi, qarorlar oqibati bo'yicha esa Parlament komissiyasi nomigagina javobgar bo'lib qolishini anglatadi**. Aslida Parlament komissiyasiga esa **na siyosiy va na huquqiy javobgarlik** mavjud. Demak, istalgan maqsad uchun pul ajratilishi mumkin.

To'g'ri, Oliy Majlisga nisbatan ham pul mablag'larini, masalan byudjetni tasarrufi berilgan va buning salbiy oqibatlari uchun **huquqiy javobgarlik yo'q, lekin siyosiy javobgarlik mavjud**. Masalan, Oliy majlis Qonunchilik palatasi deputatlarini xalq keyingi muddatga saylamasligi yoki O'zbekiston Respublikasi Prezidenti tomonidan Oliy majlis Qonunchilik palatasi tarqatib yuborilishi mumkin.

Tahlillar shuni ko'rsatmoqdaki, jamoat fondi mablag'larini boshqarish bo'yicha parlament komissiyasi tomonidan nodavlat notijorat tashkilotlari va fuqarolik jamiyati boshqa institutlarining moliyaviy erkinligini ta'minlash, mablag'larning maqsadli sarflanishi ustidan samarali nazorat olib borish, loyiha va dasturlarning ijtimoiy samaradorligini oshirish maqsadida monitoring o'tkazilgan.

Maqsadsiz va noto'g'ri sarflangan 1 mlrd. 118,5 mln. so'mlik davlat subsidiyasi, 172,9 mln. so'mlik ijtimoiy buyurtma, 238,9 mln. so'mlik davlat granti mablag'lari monitoring natijalaridan kelib chiqib qaytarilgan. Jamoat fondi faoliyatiga zamonaviy axborot-kommunikatsiya texnologiyalarini, shu jumladan loyihalarni hamda hisobotlarni elektron raqamli imzolardan foydalangan holda elektron shaklda qabul qilish, hujjatlar aylanmasini elektron tarzda yuritish bo'yicha maxsus dasturiy mahsulotlarni yaratish va joriy etish masalalariga yetarli darajada e'tibor qaratilmagan. Demak, bugungi kunda parlament komissiyasi grant mablag'larini sarflanishi yuzasidan hisobotlarni qabul qilib oladi va o'zi monitoring qiladi.

Yuqoridagilarga asosan, parlament komissiyasi na davlat organi, na nodavlat notijorat organ na kollegial organ va na yakka boshchilik qiluvchi organ. Bu esa, Parlament komissiyasi tomonidan mablag'lar samarasiz sarflanishiga olib kelinmoqda.

Shu sababli quyidagilar **taklif qilinadi**:

1. Parlament komissiyasi a'zolari yoki a'zolarining ish beruvchilari **yoxud a'zolari ta'sischi bo'lgan yuridik shaxslar jamoat fondidan mablag' oluvchilar bo'lmasligi** kerak.

2. Parlament komissiyasi to'liq va bevosita **Oliy Majlis Qonunchilik palatasi tomonidan saylanishi va bevosita Senat tomonidan tasdiqlanishi** lozim.

3. Grant tanlovlari uchun kelib tushgan loyihalarni tanlab olish va ularni dastlabki tarzda ballar asosida baholash uchun ishchi guruh o'rniga a'zolari parlament komissiyasidan emas, balki grant tanlovi mavzusiga aloqador bo'lgan maxsus mutaxassis va ekspertlardan iborat kengash tuzish kerak.

3. Parlament komissiyasini tartibga soluvchi normativ hujjatlar Oliy Majlis palatalarining kengashlari tomonidan tasdiqlanib, keyinchalik Palatalar tomonidan nomigagina palatalar tomonidan tasdiqlanishi emas, balki **bevosita Oliy Majlis palatalari tomonidan tasdiqlanishi** lozim.

4. Parlament komissiyasini yig'ilish qarorlarida ovoz berish natijasi **har bir a'zo tomonidan imzolangan holda tasdiqlanishi** lozim.

5. Parlament komissiyasi qarorlari va Oliy Majlisi huzuridagi Nodavlat notijorat tashkilotlarini va fuqarolik jamiyatining boshqa institutlarini qo'llab-quvvatlash jamoat fondi

faoliyatini ochiqqligi va shaffofligiga nisbatan **davlat organlariga qo'llaniladigan barcha qonunchilik hujjatlari talablari qo'llanilishi** lozim.

Xususan, "Davlat hokimiyati va boshqaruvi organlari faoliyatining ochiqqligi to'g'risida"gi Qonun, O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2021-yil 16-iyundagi PF-6247-son "Davlat organlari va tashkilotlarining faoliyati ochiqqligini ta'minlash, shuningdek, jamoatchilik nazoratini samarali amalga oshirishga doir qo'shimcha chora-tadbirlar to'g'risida"gi hamda O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022-yil 14-iyundagi PF-154-son "Davlat organlari va tashkilotlari faoliyatining ochiqqlik darajasini oshirish va baholash tizimini joriy etish chora-tadbirlari to'g'risida" Farmonlari talablari qo'llanilishi lozim.

6. Parlament komissiyasi faoliyati bo'yicha, xususan grantlarni e'lon qilish va grant, ijtimoiy buyurtma va subsidiyalar berish tartiblari to'liq normativ-huquqiy hujjat shaklida qabul qilinishi lozim.

Nodavlat notijorat tashkilotlari faoliyatini takomillashtirishning muhim yo'nalishlaridan biri raqamli texnologiyalarni sohaga keng jalb etish hisoblanadi.

Nodavlat notijorat tashkilotlariga davlat xizmatlarini ko'rsatish elektron tartibda, xususan www.e-ngo.uz elektron portali orqali amalga oshirilishi yo'lga qo'yildi, natijada bugungi kunga qadar portal orqali 30 000 ortiq davlat xizmatlari ko'rsatildi. Xususan, 2019-y. – 1 110 ta xizmat, 2020-y. – 5 896 ta xizmat, 2021-y. – 11 141 ta xizmat, 2022-y. – 12 155 ta xizmat ko'rsatilgan [3].

2022-yil aprel holatiga ko'ra, dunyoda 5 milliarddan ortiq (dunyo aholisining 63,1%) Internet foydalanuvchilari mavjud (World Internet Users, 2022) [4]. **Tarmoqlash** (Setevizatsiya) tarmoqli jamiyatning infratuzilmalarini tuzib, hududiy va institutsional chegaralarni buzib, axborot oqimlari bilan to'la bo'lgan va vaqt birligi u yerda amal qilmaydigan ijtimoiy hayot moddiy asoslarining o'zgarishiga sabab bo'ladigan texnologik infratuzilmaning elementlaridan biri sifatida namoyon bo'ladi [5: 100].

Umuman olganda, raqamlashtirish sharoitida nodavlat notijorat tashkilotlari faoliyatining transformatsiyasiga quyidagi omillarni keltirish mumkin.

Birinchidan, bugungi kunda dunyoda 2020-yil yakunlariga ko'ra, rivojlangan davlatlarda mobil aloqa abonentlari soni 100 kishi uchun 99.6 tani tashkil etgan. Shuningdek, kam rivojlangan mamlakatlar aholisining 20 % internetdan foydalanish imkoniyatiga ega.

Ikkinchidan, COVID-19 pandemiyasi Internet-trafikka katta ta'sir ko'rsatdi, ya'ni 2020-yilda Internet tarmog'i 35% ga oshdi. Bu tarixdagi eng yirik o'sishdir.

Uchinchidan, BMT ning raqamli iqtisodiyot to'g'risidagi hisobotiga ko'ra, raqamli texnologiyalar nuqtai nazaridan ikki mamlakat – AQSH va Xitoy hisobiga giper o'lchovli ma'lumotlar markazlarining 50 %, raqamli startaplar umumiy moliyalashtirilishining 94%, bu borada dunyodagi yetakchi olimlarining 70% va dunyodagi eng yirik raqamli platformalarning bozor kapitallashuvining deyarli 90% ni tashkil etmoqda. (Apple, GOOGLE, Alibaba)

Yuqorida keltirilgan fikrlar, ushbu muammoni nazariy tushunishning hozirgi bosqichida huquqiy fan huquqiy amaliyotning talablaridan orqada qolmoqda deb ilmiy xulosa berishga asos yaratadi.

Inson va fuqarolarning uyushish huquqi orqali shaxslarning umumiy manfaatlar, faoliyat yoki maqsadlar bilan bog'liq masalalar bo'yicha birlashish imkoniyati tushuniladi. Uyushmaning majburiy belgilari notijorat xususiyati va faoliyatni tashkil etishda o'zaro

kelishuv hisoblanadi. Uyushmalar turli yo'llar bilan nomlanishi mumkin: notijorat, nodavlat, nohukumat, fuqarolar birlashmalari. "uchinchi sektor" va boshqalar.

Butun dunyoda fuqarolik jamiyati institutlari rivojlanishi yangi tendensiyalarga yuz tutmoqda. **Birinchidan**, dunyoning ko'plab mintaqalarida axborot-kommunikatsiya texnologiyalarini joriy etish natijasida "Raqamli jamiyat"ning yangi shakllari paydo bo'lmoqda. Raqamli jamiyatda ijtimoiy o'zaro ta'sirlar soddalashtiriladi, axborot ochiqligi oshadi va atrof-muhit xarajatlari kamayadi.

Ikkinchidan, fuqarolik jamiyatining rivojlanish tendensiyalari milliy davlatlar chegaralaridan tashqariga chiqib, xalqaro hayotning bir qismiga aylanib, "global fuqarolik jamiyati" tushunchasi tobora hayotimizga kirib kelmoqda.

Uchinchidan, yana bir muhim tendensiya tadbirkorlar uyushmalarining fuqarolik jamiyati institutlarini shakllantirib, davlat va jamiyatning mafkuraviy-g'oyaviy hayotiga ta'sir o'tkazishga intilish kuchayishi kuzatilmoqda.

To'rtinchidan, Postpandemiya sharoitida yuzaga kelgan muhim tendensiyalardan biri raqamlashtirishning rivojlanishi natijasida nodavlat notijorat tashkilotlarining faoliyatida raqamli texnologiyalar o'rni ortib ketganligida ko'rinadi. COVID-19 pandemiyasi Internet-trafikka katta ta'sir ko'rsatdi, ya'ni 2020-yilda Internet tarmog'i 35% ga oshdi. Bu tarixdagi eng yirik o'sishdir. Raqamli huquq shakllanish sharoitida fuqarolik jamiyati institutlarining elektron jamoatchilik nazorati asosida davlatga katta ko'makchi bo'lganligiga guvoh bo'ldik. Shu sababli, elektron jamoatchilik nazoratining huquqiy asoslarini takomillashtirish zaruriy talablardan biri hisoblanadi.

Elektron jamoatchilik nazorati davlat hokimiyati organlari va ularning mansabdor shaxslarining raqamli texnologiyalar imkoniyatlaridan foydalangan holda jamoatchilik nazorati subyektlari faoliyatini nazorat qilishning yangi shaklidir.

Yevropa Ittifoqi mamlakatlarida elektron jamoatchilik nazorati shakllari orasida quyidagilar ajratib ko'rsatilmoqda:

- 1) nohukumat tashkilotlari elektron platformalarida jamoatchilik fikri bilan ishlash;
- 2) barcha manfaatdor tomonlar ishtirokida on-layn ochiq eshituvlar o'tkazish;
- 3) elektron fokus-guruhlar yordamida forumlar, konferensiyalar o'tkazish;
- 4) ijtimoiy tarmoqlar orqali interaktiv muloqot tashkil etish.

Fuqarolik jamiyati institutlarining samaradorlik va natijadorlikning asosiy ko'rsatkichlari mezonlari sifatida ijtimoiy foydali loyihalar soni, sohaga oid qonunchilikni takomillashtirish bo'yicha berilgan takliflar va ular asosida ish jarayoni va qonun hujjatlariga kiritilgan tegishli o'zgartirishlar, jamoatchilik nazorati sohasida faollik darajasi kabilarni keltirish mumkin.

Fikrimizcha, mazkur mezonlar va nodavlat notijorat tashkilotlarining reytingi elektron platformada ochiqlik va shaffoflik prinsiplari asosida barcha soliq to'lovchilar e'tiboriga onlayn rejimda havola etib borish maqsadga muvofiq.

Nodavlat notijorat tashkilotlarini qo'llab-quvvatlashda O'zbekiston nodavlat notijorat tashkilotlari milliy assotsiatsiyasining o'ziga xos o'rni bor. Assotsiatsiya 2005-yilda 150 ta respublika va viloyatlar miqyosida faoliyat yurituvchi nodavlat notijorat tashkilotlarning tashabbusi bilan tashkil topgan mamlakatimizdagi yirik jamoat tashkilotlardan biri hisoblanadi. Uning asosiy maqsadi nodavlat notijorat tashkilotlarni har tomonlama qo'llab-quvvatlash va ularning jamiyat hayotini yanada erkinlashtirish va demokratlashtirish, erkin va

ochiq kuchli fuqarolik jamiyatini qurish, davlat va jamiyat hayotida nodavlat notijorat tashkilotlari mavqeyini yanada yaxshilash hisoblanadi.

Tahlillar shuni ko'rsatmoqdaki, 2021-yil yakuniga ko'ra, Assotsiatsiyaga a'zo bo'lgan NNTlar soni **990** taga (11,5%) yetkazildi [6]. O'zbekiston nodavlat notijorat tashkilotlarini qo'llab-quvvatlash jamoat fondi tomonidan umumiy 8,5 mlrd so'mlik birinchi grant tanlovini e'lon qilindi.

Tahlillar shuni ko'rsatmoqdaki, asosan assotsiatsiyaga a'zo nodavlat notijorat tashkilotlari quyidagi yo'nalishlarda grant tanlovlarida ishtirok etmoqda:

1. Aholi salomatligini mustahkamlash va sog'lom turmush tarzini targ'ib qilish;
2. Yoshlar loyihalarini qo'llab-quvvatlash;
3. Aholiga ijtimoiy xizmat ko'rsatish, ularni ijtimoiy qo'llab-quvvatlash va muhofaza qilish.

Fuqarolik jamiyati institutlari faoliyatining ochiqligini ta'minlash ham juda muhim masala hisoblanadi. Nodavlat notijorat tashkilotlariga davlat ko'magi sifatida ajratilgan grantlar, subsidiya va ijtimoiy buyurtma mablag'lari ishlatilishi hamda o'z mol-mulki va pul mablag'laridan foydalanishi jarayonining shaffofligini ta'minlash bo'yicha **“Openness of non-governmental non-profit organizations”** – “Ochiqlik standarti”ni yanada takomillashtirish maqsadga muvofiq hisoblanadi.

AQSH, Buyuk Britaniya va Germaniyada nodavlat notijorat tashkilotlari o'zining butun faoliyatini, shuningdek, mol-mulki va pul mablag'laridan foydalanishi jarayonini majburiy tarzda jamoatchilikka yetkazadi, jumladan internet tarmoqlaridagi saytlarda e'lon qilib boradi.

AQSHda volontyorlik harakati “korporativ ijtimoiy mas'uliyat” (Sorporate Social Responsibility) konsepsiyasining asosi bo'lib xizmat qilgan, uning yana bir tarkibiy qismi korporativ volontyorlik hisoblanadi.

Bugungi kunda AQSHda **50 foizdan** ortiq aholi qatlami ko'ngillilik asosidagi ishlarda qatnashib keladi. Ko'ngillilar mehnatining moliyaviy ekvivalenti **5 300** mlrd dollardan oshadi.

Yaponiyada “Minsey inn” xayriya yordami tizimi yaratilgan bo'lib, **3 300 dan** ortiq volontyorlik markazlari faoliyat ko'rsatadi. Buyuk Britaniyada volontyorlar markazi tashkil etilgan bo'lib, o'rta va yuqori sinf vakillari kambag'allikka qarshi kurashish yo'lida keng ravishda ijtimoiy ishlarga jalb qilingan.

Germaniyada fuqarolar bir oy davomida o'zining **15 soatdan** ortiq vaqtini ko'ngilli uyushma, loyiha va o'zaro yordam guruhlariga bag'ishlaydi. Mamlakatda **70 mingga yaqin** notijorat tashkilotlari faoliyat yuritib, ularda volontyorlik huquqi asosida **2 milliondan ortiq fuqarolar** ishlaydi.

Shuningdek, Xayriya va homiylik mablag'larini markazlashtirilgan holda to'plash va tarqatish hamda xayriya etuvchi o'z mablag'ining ishlatilishini ko'rib turuvchi elektron platformalarni, mobil ilovalarni va blokcheyn tizimlarini, ta'lim muassasalarida “Endowment fund” va “Trast fond” amaliyotini yanada takomillashtirish zarur [7].

Avstraliya, AQSH, Buyuk Britaniya, Germaniya va Singapurda bunday tizimlar orqali xayriya tadbirlarining amalga oshirilishi natijasida ko'pchilikning xayriya ishlariga bo'lgan ishonchi ortishiga va xayriya tadbirlariga ko'plab shaxslarning jalb etishiga erishilgan [8; 683, 9; 225, 10, 11].

Fikrimizcha, mamlakatimizda jismoniy shaxslarning mol-mulkidan ijtimoiy maqsadlarda foydalanish tizimini samarali yo'lga qo'yish, ya'ni trast fondlar faoliyatini yo'lga

qo'yish lozim. Bunda jismoniy shaxslarning mol-mulki fondlar tomonidan tasarruf qilinmaydi, balki uni foydalanishdan kelgan foyda ijtimoiy maqsadlarga yo'naltiriladi.

Mamlakatimizda mazkur tizimni yanada takomillashtirish fuqarolarning xayriya tadbirlariga bo'lgan ishonchini oshirish hamda xayriya tadbirlariga ko'plab fuqarolarni jalb etish orqali Jahon xayriya indeksining yuqori reytingiga kirish imkoniyatini yaratadi [12].

Bundan tashqari, NNT ishtirokida ijtimoiy loyihalarni amalga oshirishning innovatsion usuli sifatida volontyorlik faoliyatini yo'naltirish, muvofiqlashtirish, qo'llab-quvvatlash va rag'batlantirish mexanizmlari yanada zamonaviy axborot texnologiyalari orqali takomillashtirish maqsadga muvofiq.

Xulosa sifatida aytish mumkinki, nodavlat notijorat tashkilotlarini qo'llab-quvvatlashning innovatsion usullarini qo'llash elektron jamoatchilik nazoratini kuchayishiga, ijtimoiy foydali loyihalarni manzilli ko'rsatishga, inson huquqlarini samarali himoya qilishga imkon beradi.

Adabiyotlar/Literatura/References:

1. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining Oliy Majlisga Murojaati. 2020-yil 20-yanvar.
2. 2022-yilda NNT va fuqarolik jamiyati institutlarining qariyb 98 milliard so'mlik loyihalari qo'llab-quvvatlandi // URL: <https://uza.uz/uz/posts/2022-yilda-nnt-va-fuqarolik-zhamiyati-institutlarining-qariyb-98-milliard-somlik-loyihalari-qollab-quvvatlandi> 445049
3. O'zbekiston Respublikasi Adliya vazirligining 2023-yil 20-martdagi 9-05-09-son javob xati.
4. Internet and social media users in the world 2022 - Statista <https://www.statista.com>
5. Добринская Д. Е., Мартыненко Т. С. Цифровой разрыв в России: особенности и тенденции //Мониторинг общественного мнения: Экономические и социальные перемены. – 2019. – №. 5. – С. 100-119.
6. O'zbekiston nodavlat notijorat tashkilotlari milliy assotsiatsiyasi rasmiy hisoboti. (2021)
7. Kilic I. Paradoxes of Feminist Stances in "New Turkey": Reconceiving NGO-State Relationships in the Case of KAMER. – 2019.
8. Sunata U., Tosun S. Assessing the civil society's role in refugee integration in Turkey: NGO-R as a New Typology //Journal of Refugee Studies. – 2019. – T. 32. – №. 4. – С. 683-703.
9. Dyachkova E. Managing endowment fund income in universities //Вопросы образования. – 2016. – №. 1 (eng). – С. 225-244.
10. <http://azon.uz/content/views/aqshdagi-vaqf-tizimidan-urnak-olsak-arzi>
11. <https://www.sdfoundation.org/news-events/sdf-news/what-is-an-endowment-fund/>
12. <https://giving.stanford.edu/>

SCIENCEPROBLEMS.UZ

IJTIMOYIY-GUMANITAR FANLARNING DOLZARB MUAMMOLARI

№ 9 (5) – 2025

АКТУАЛЬНЫЕ ПРОБЛЕМЫ СОЦИАЛЬНО- ГУМАНИТАРНЫХ НАУК

ACTUAL PROBLEMS OF HUMANITIES AND SOCIAL SCIENCES

“Ijtimoiy-gumanitar fanlarning dolzarb muammolari” elektron jurnali 2020-yil 6-avgust kuni 1368-sonli guvohnoma bilan davlat ro'yxatiga olingan.

Muassis: “SCIENCEPROBLEMS TEAM”
mas'uliyati cheklangan jamiyati

Tahririyat manzili:

100070. Toshkent shahri, Yakkasaroy tumani, Kichik Beshyog'och ko'chasi, 70/10-uy. Elektron manzil:

scienceproblems.uz@gmail.com

Bog'lanish uchun telefon:

(99) 602-09-84 (telegram).